



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM

OPEN ACCESS

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoirja Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоида Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоида Джалоловна	



SUN'YI INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI	197
Tursunboyev Umarbek	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна	
Мансурова Сайёра Бахтиёрвна	
БАНК ТИЗИМИ БАҲҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
О'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	237
Shohruzбек Ruziyev	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING	244
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	256
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Mamanov Isroil Islom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI.....	260
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li	
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN	264
Dr Muhammad Bilal	
Gulyorabonu Usmonova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI	275
Xasanova Xamida Xaydaraliyevna	
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	281
Nazarova Shahodat Ravshan qizi	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN INDUSTRIAL COMPANIES	286
Musoyeva Rukhshona Javlon qizi	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE.....	291
Musayeva Shoira Azimovna	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ VA BUXGALTERIYA ISLOHOTLARINING KORKONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	298
Isayev Jahongir Muzaffarovich Jumaboyeva Zuhra Umidbek qizi	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR TOMONIDAN XODIMLAR DAROMADIDAN SOLIQNI TO'LOV MANBAIDA USHLAB QOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	302
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	309
Sheraliyev Axror Sodiqovich Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li	
BIZNES INKUBATORLARNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	314
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich	
GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....	323
R.O. Obloberdiyeva	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	329
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI	335
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
MUSOBAQA DAVRIDA MALAKALI MARKAZ O'YINCHILARINING HUJUM TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	340
R.O. Obloberdiyeva	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ NIZOLARINI SUDGACHA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	348
Solihova Xumora Xasan qizi	
IQTISODIYOTDA "DATA SCIENCE"NING O'RNI VA AHAMIYATI	354
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi	
ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ И ФИНТЕХ-РЕШЕНИЙ	357
Абдуллаева Шахло Рустамовна	
MAXSUS IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY KATEGORIYALAR.....	365
Arslanov U.U.	
KORXONA BOSHQARUV TIZIMINI KOMPLEKS TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARI	372
Yusupov Nurillo Ikromjon o'g'li	
SANOAT SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH	378
Alijonov J.A. Abdusattorova Dilobar Abdujabborovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOIIY HIMOYA VA BANDLIK SIYOSATINING ROLI.....	384
Murodullayev Saydali Fayzulla o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA "POTENSIAL – SAMARADORLIK–BARQARORLIK" (PSB) STRATEGIYA MODELINI TATBIQ ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT	391
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOIIY HIMOYA VA BANDLIK SIYOSATINING ROLI

Murodullayev Saydali Fayzulla o'g'li
Osiyo texnologiyalar universiteti magistranti
Tel.: +998 97 313 00 80
E-mail: saydali.dev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda ijtimoiy himoya mexanizmlari va bandlik siyosatining 2020–2024-yillardagi roli, samaradorligi hamda mavjud cheklavlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ijtimoiy xarajatlar dinamikasi, mehnat bozorida o'zgarishlar, gender tengligi ko'rsatkichlari va milliy qashshoqlik darajasining pasayish sur'atlari o'rganilgan. Tahlil natijalari ijtimoiy himoya va bandlik siyosati inklyuzivlikni oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. Maqola amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, bandlik siyosati, gender tengligi, norasmiy sektor, inklyuziv rivojlanish, inson kapitali, O'zbekiston.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role, effectiveness, and existing limitations of social protection mechanisms and employment policies in promoting inclusive economic development in Uzbekistan during 2020–2024. The study examines the dynamics of social expenditures, changes in the labor market, gender equality indicators, and the rate of reduction in national poverty levels. The findings indicate that social protection and employment policies have played a positive role in enhancing inclusiveness. The article concludes with practical recommendations.

Keywords: social protection, employment policy, gender equality, informal sector, inclusive development, human capital, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы роль, эффективность и существующие ограничения механизмов социальной защиты и политики занятости в обеспечении инклюзивного экономического развития Узбекистана в 2020–2024 годах. В рамках исследования изучены динамика социальных расходов, изменения на рынке труда, показатели гендерного равенства и темпы снижения уровня национальной бедности. Результаты анализа показывают, что социальная защита и политика занятости сыграли положительную роль в повышении уровня инклюзивности. Статья завершается практическими рекомендациями.

Ключевые слова: социальная защита, политика занятости, гендерное равенство, неформальный сектор, инклюзивное развитие, человеческий капитал, Узбекистан.

KIRISH

Inklyuziv rivojlanishning iqtisodiy o'sishga bog'liq bo'lgan ikki asosiy kanali mavjud. Birinchisi — iqtisodiy o'sishning o'zi, ikkinchisi esa ushbu o'sish natijalarining aholi qatlamlari o'rtasida qay darajada adolatli taqsimlanishidir. Ijtimoiy himoya tizimi va bandlik siyosati aynan shu ikkinchi kanalning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, iqtisodiy o'sishning inklyuziv xususiyat kasb etishini ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi [1].

O'zbekiston hukumati 2021-yilda bir qator muhim maqsadlarni belgilab berdi. Jumladan, 2026-yilga qadar milliy qashshoqlik darajasini ikki baravarga qisqartirish hamda 2030-yilga qadar mamlakatni o'rta daromadli davlatlar qatoriga olib chiqish vazifalari ilgari surildi [2]. Mazkur maqsadlarga erishishda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va mehnat bozorida aholining barcha qatlamlari, jumladan, ayollar, yoshlar hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3].

2021-yilda O'zbekistonda milliy qashshoqlik darajasi 16,5 foizni tashkil etib, bu taxminan 5,7 million nafar aholiga to'g'ri kelgan [3]. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 2020-yil yanvaridan 2022-yil



sentyabrigacha bo'lgan davrda 43 foizga oshgani [3] ijtimoiy himoya tizimiga sezilarli yuklama keltirib chiqardi. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish maqsadida Jahon banki tomonidan 2020-yilda O'zbekistonga 200 million AQSh dollari miqdorida qo'shimcha rivojlanish moliyalashtiruvini ajratildi [4].

Bandlik sohasi ham mazkur davrda sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Xususan, ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yilga kelib 5,5 foizgacha kamaydi [5]. Biroq ushbu ijobiy dinamikani baholashda ehtiyotkorlik zarur, chunki ishsizlikning qisqarishi ma'lum darajada norasmiy bandlik ulushining ortishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat rasmiy statistik ma'lumotlar aks ettirayotgan natijalarni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. ijtimoiy himoya xarajatlari dinamikasini tahlil qilish;
2. bandlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni baholash;
3. gender tengligi holatini o'rganish;
4. norasmiy sektordagi mavjud muammolarni aniqlash;
5. inklyuziv rivojlanishni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy himoya va inklyuziv rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Devereux va Sabates-Wheeler [6] ijtimoiy himoyaning to'rtta asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatadi: (1) himoya (*protection*) — mavjud daromadlarni saqlab qolish; (2) oldini olish (*prevention*) — ijtimoiy va iqtisodiy risklarning salbiy oqibatlarini kamaytirish; (3) rivojlantirish (*promotion*) — iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish; (4) transformatsiya (*transformation*) — tizimli tengsizliklarni bartaraf etish. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan transformatsion ijtimoiy himoya konsepsiyasi inklyuziv rivojlanishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) [7] tomonidan 148 mamlakat ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy xarajatlarning YaIMdagi ulushini 1 foizga oshirish qashshoqlik darajasini o'rtacha 0,6–0,9 foiz punktga kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu bog'liqlik asosan maqsadli va samarali dasturlar mavjud bo'lgan sharoitda kuzatiladi, umumiy subsidiyalar esa nisbatan past samaradorlikka ega bo'ladi.

Bandlik va inklyuzivlik masalalarini o'rganishda Fields [8] tomonidan ishlab chiqilgan mehnat bozori dualizmi nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, mehnat bozorida yuqori ish haqi va yuqori unumdorlikka ega rasmiy sektor bilan bir qatorda past unumdorlikka ega norasmiy sektor mavjud bo'lib, bu holat inklyuziv rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. O'zbekistonda norasmiy sektorning sezilarli ulushga egaligi ushbu nazariyaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Gender tengligi va inklyuziv iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik Klasen va Lamanna [9] tomonidan 100 ta mamlakat ma'lumotlari asosida empirik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollarning ishchi kuchidagi ishtiroki darajasining 1 foizga oshishi YaIM o'sish sur'atlarini 0,3–0,5 foiz punktga oshirishi mumkin. Mazkur natijalar gender siyosatini nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha amalga oshirilgan mahalliy tadqiqotlarda Mustafakulov va Xasanov [10] ijtimoiy himoya xarajatlari hamda qashshoqlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, 2017–2022-yillar davomida ushbu xarajatlarning 1 foizga oshishi qashshoqlik darajasining o'rtacha 0,8 foizga pasayishiga xizmat qilganligini aniqlagan.

Jahon banki [3] O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarni baholar ekan, majburiy va bolalar mehnatiga barham berish, ichki migratsiya bo'yicha cheklovlarni yumshatish hamda ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni inklyuziv rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimining universalligi va manzilliligini yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) [12] ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston ta'lim tizimida sifat bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Davlat ta'lim xarajatlarning 72,3 foizi ikkilamchi ta'limga yo'naltirilgan bo'lsa-da, xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA natijalari bo'yicha ma'lumotlarning cheklanganligi ta'lim sifatini obyektiv baholash imkoniyatlarini murakkablashtiradi. Bu esa inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning inklyuziv rivojlanishga ta'sirini to'liq baholashni qiyinlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya va bandlik siyosatining inklyuziv rivojlanishga ta'sirini kompleks baholash masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalanildi:

1. Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning statistik to'plamlari va mamlakatlar bo'yicha hisobotlari;
 2. Jahon bankining *Development Policy Operations (DPO)* hujjatlari;
 3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP)ning 2022–2024-yillardagi Inson rivojlanishi hisobotlari;
 4. UN Women hamda Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan gender indeksleri bo'yicha ma'lumotlar;
 5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik axborotlari [13].
- Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:
- a) Devereux–Sabates–Wheeler [6] tomonidan ishlab chiqilgan ko'p funktsiyali ijtimoiy himoyani baholash metodikasi;
 - b) bandlik sifati ko'rsatkichlari tahlili (rasmiy va norasmiy bandlik nisbati, ish haqi o'sishi hamda gender tafovutlari);
 - v) xarajat–natija tahlili (*social expenditure impact analysis*);
 - g) Gender tengsizlik indeksi (GII)ning dinamik tahlili;
 - d) xalqaro qiyosiy tahlil — O'zbekiston ko'rsatkichlarini qo'shni MDH davlatlari hamda rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirish.

Tadqiqotda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanildi:

1. ijtimoiy himoya xarajatlarning YaIMdagi ulushi;
2. ta'lim xarajatlarning YaIMdagi ulushi;
3. rasmiy ishsizlik darajasi;
4. ayollarning ishchi kuchidagi ishtiroki darajasi;
5. milliy qashshoqlik darajasi;
6. Gender tengsizlik indeksi (GII);
7. parlamentdagi ayollar ulushi;
8. Inson rivojlanishi indeksi (HDI).

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ijtimoiy himoya xarajatlari so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Mazkur holat hukumat tomonidan qashshoqlikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish hamda inson rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan strategik maqsadlar bilan uzviy bog'liqdir. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) [12] ma'lumotlariga ko'ra, kelgusi yillarda ham ijtimoiy xarajatlarning yuqori darajada saqlanib qolishi kutilmoqda. Biroq ushbu jarayon davlat byudjeti xarajatlarning ortishi hamda fiskal muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni yanada dolzarb etmoqda (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda ijtimoiy xarajatlar dinamikasi (2020–2024, YaIM foizida)

Xarajat yo'nalishi	2020	2021	2022	2023	2024*
Ijtimoiy himoya (% YaIM)	9,0	10,0	11,0	12,0	13,0
Ta'lim (% YaIM)	5,5	5,8	6,0	6,2	6,5
Sog'liqni saqlash (% YaIM)	3,2	3,5	3,6	3,8	4,0
Jami ijtimoiy xarajat (% YaIM)	17,7	19,3	20,6	22,0	23,5

* 2024 yil ko'rsatkichlari taxminiy. Manba: ADB [12], World Bank [3], muallif hisob-kitobi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jami ijtimoiy xarajatlar YaIMning 17,7 foizidan 23,5 foizigacha oshgan bo'lib, bu besh yil davomida 5,8 foiz punktklik o'sishni tashkil etadi. Mazkur tendensiya O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatining izchil rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Jahon banki [3] ushbu xarajatlarning ortishi va ularning ijtimoiy natijalariga ijobiy baho berib, majburiy va bolalar mehnatiga barham



berish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlarni kengaytirish hamda ayollar huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarni alohida e'tirof etgan.

Biroq ijtimoiy xarajatlar hajmining ortishi bilan bir qatorda ularning samaradorligini ta'minlash masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) [12] maqsadli ijtimoiy dasturlar umumiy subsidiyalarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlaydi. O'zbekistonda esa uy-joy va kommunal xizmatlar bo'yicha subsidiyalar hali ham keng qo'llanilmoqda. Ayrim hollarda bunday subsidiyalar kam ta'minlangan aholi qatlamlariga nisbatan o'rta va yuqori daromadli guruhlar tomonidan ko'proq foydalanilayotganligi qayd etiladi.

O'zbekistonda bandlik sohasidagi o'zgarishlar 2020–2024-yillar davomida sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Rasmiy ishsizlik darajasining pasayishi mehnat bozorini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin (2-jadval).

2-jadval
Bandlik va mehnat bozori ko'rsatkichlari (2020-2024)

Koʻrsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Rasmiy ishsizlik darajasi (%)	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5
Ayollar ish kuchi ishtiroki (%)	48	49	50	51	52
Mehnat kuchidagi aholi (mln)	17,0	17,5	18,0	20,0	21,4
Milliy qashshoqlik darajasi (%)	—	16,5	14,0	11,0	8,9
Norasmiy bandlikning taxminiy ulushi (%)	45	43	40	38	36

Manba: World Bank [5], ADB [12], Milliy statistika qo‘mitasi [13], muallif hisob-kitobi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, rasmiy ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yilda 5,5 foizgacha pasaygan. Mazkur holat 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional islohotlarning mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini anglatadi. Shu bilan birga, mehnat kuchi tarkibidagi aholi sonining 17 million nafardan 21,4 million nafargacha ortishi iqtisodiy faollikning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq norasmiy bandlik ulushi hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda va 2024-yil holatiga ko'ra taxminan 36 foizni tashkil etadi. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'pincha rasmiy ijtimoiy himoya mexanizmlari, pensiya ta'minoti hamda mehnat huquqlari bilan bog'liq kafolatlardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli mazkur holat inklyuziv rivojlanish oldidagi muhim omillardan biri sifatida baholanadi [8].

Milliy qashshoqlik darajasining 2021-yildagi 16,5 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasayishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim natijalardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich Osiyo taraqqiyot banki (OTB) [12] va Jahon banki tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida sezilarli siljishlar kuzatilayotganini ko'rsatadi. Biroq qashshoqlik darajasining pasayishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini chuqur tahlil qilish zarur, chunki bunda norasmiy daromadlar hamda mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pul o'tkazmalari ham muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur natijalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro pul o'tkazmalari (*remittances*) muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Jahon banki [14] ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmi YalMning 14,4 foizini tashkil etgan bo'lib, bu MDH mamlakatlari orasidagi yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Xalqaro pul o'tkazmalari va ijtimoiy ta'siri (2020–2024)

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Pul o'tkazmalari (% YalM)	~11,0	~12,5	~13,0	~13,8	14,4
Pul o'tkazmalari (mlrd AQSh\$)	~4,8	~7,5	~9,0	~10,0	~10,8

Manba: World Bank [14].



Xalqaro pul o'tkazmalari O'zbekistondagi ko'plab uy xo'jaliklari daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular aholi farovonligini qo'llab-quvvatlash, iste'mol xarajatlarini moliyalashtirish hamda qashshoqlik darajasini kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, pul o'tkazmalari ayrim hollarda ijtimoiy himoya tizimini to'ldiruvchi qo'shimcha iqtisodiy resurs vazifasini bajaradi.

Jahon bankining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi nisbatan yuqori sur'atlarda kuzatilgan hamda ushbu o'sish past daromadli aholi qatlamlari farovonligining yaxshilanishiga ham xizmat qilgan. Natijada milliy qashshoqlik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha pasaygan [15].

Gender tengligi inklyuziv rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ayrim yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish sur'atlarini yanada jadallashtirish zarurati saqlanib qolmoqda (4-jadval).

4-jadval
O'zbekistonda gender tengligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Mintaqa o'rtacha	Xalqaro o'rin
Gender tengsizlik indeksi (GII)	0,227 (2021)	0,28	56/191
Parlamentdagi ayollar ulushi (%)	32 (2020)	20	Yaxshi
Ayollar ish kuchi ishtiroki (%)	52 (2024)	55	O'rta
Ayollarning o'rta ta'limdagi ulushi (%)	65,9 (2010)	70	Past-o'rta

Manba: UNDP [16], UN Women [17], muallif hisob-kitobi.

O'zbekiston Gender tengsizlik indeksi (GII) bo'yicha 191 mamlakat orasida 56-o'rinni egallab, Markaziy Osiyo mintaqasida nisbatan yuqori natijalardan birini namoyon etmoqda [16]. Xususan, parlamentdagi ayollar ulushining 32 foizga yetgani mintaq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (taxminan 20 foiz) sezilarli darajada yuqori bo'lib, gender vakilligi borasidagi ijobiy tendensiyalarni aks ettiradi.

Jahon banki [3] tomonidan qo'llab-quvvatlangan islohotlar doirasida teng mehnat uchun teng haq to'lash tamoyillarini mustahkamlash, tug'ruq ta'tili bilan bog'liq kafolatlarni kengaytirish hamda gender asosidagi zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar natijasida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki bosqichma-bosqich ortib bormoqda.

Shu bilan birga, ayollar va erkaklar daromadlari o'rtasidagi tafovut ayrim yo'nalishlarda saqlanib qolmoqda. Bu holat gender tengligining iqtisodiy jihatlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi hamda inklyuziv rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratishni talab etadi.

Inson rivojlanishi indeksi (HDI) daromad darajasi, ta'lim ko'rsatkichlari va kutilayotgan umr davomiyligini o'zida mujassamlashtirgan kompleks indikator bo'lib, inklyuziv rivojlanish darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (5-jadval).

5-jadval
O'zbekiston HDI va ijtimoiy ko'rsatkichlar (2021–2025)

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
HDI qiymati	0,742	0,748	0,757	0,762	0,768
Elektr energiyasiga kirish (%)	100	100	100	100	100
5 yoshgacha o'lim (1000 ga)	16	15	14	13	13
BRM xalqaro reytingida o'rin	—	—	—	+8 o'rin	—

Manba: UNDP [16], ADB [12], World Bank [14].



Inson rivojlanishi indeksi (HDI) qiymatining 0,742 dan 0,768 gacha oshgani O'zbekistonning "yuqori inson rivojlanishi" toifasidagi o'rnini saqlab qolayotganini ko'rsatadi. Elektr energiyasidan foydalanish darajasining deyarli to'liq qamrovga erishgani hamda besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasining pasayishi ijtimoiy infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirish borasida ijobiy natijalar kuzatilayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bo'yicha xalqaro reytingda 2023-yilda sakkiz pog'onaga yuqorilagan [13]. Bu holat inklyuziv rivojlanish yo'nalishidagi sa'y-harakatlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari O'zbekistonda ijtimoiy himoya va bandlik siyosati inklyuziv rivojlanishga umumiy jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda bir qator tizimli masalalar ham saqlanib qolmoqda.

Birinchi muhim xulosa shundan iboratki, ijtimoiy xarajatlar hajmining ortishi qashshoqlik darajasining pasayishi bilan bir vaqtda kuzatilmoqda. Biroq mazkur bog'liqlikni bevosita sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki pul o'tkazmalari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy himoya dasturlari birgalikda ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli alohida dasturlarning yakka tartibdagi samaradorligini aniq baholash murakkab hisoblanadi.

Ikkinchi muhim masala norasmiy bandlik ulushining yuqoriligidir. Taxminan 36 foizni tashkil etayotgan norasmiy bandlik darajasi ijtimoiy himoya qamrovining kengayishini cheklaydi, soliq bazasining o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi hamda mehnat munosabatlarning institutsional barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois norasmiy sektorni bosqichma-bosqich rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [8].

Uchinchi muhim masala ta'lim sifati va inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligi bilan bog'liqdir. Ta'lim xarajatlarning YalMdagi ulushi ortib borayotgani ijobiy holat bo'lsa-da, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) [12] qayd etganidek, xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA natijalarisiz ta'lim sifatidagi o'zgarishlarni to'liq va obyektiv baholash qiyin. Bu esa kelajakdagi mehnat resurslari salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarning dolzarbligini oshiradi.

To'rtinchi muhim masala xalqaro pul o'tkazmalariga bog'liqlik bilan bog'liqdir. YalMning 14,4 foiziga teng bo'lgan pul o'tkazmalari ko'plab uy xo'jaliklari daromadlarining muhim manbai hisoblanadi. Biroq ushbu daromad manbaining yuqori ulushi tashqi iqtisodiy omillarga sezgirlikni kuchaytiradi. Shu sababli ijtimoiy himoya va aholi farovonligini ta'minlashning ichki iqtisodiy manbalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Maqsadli ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish. Umumiy subsidiyalar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirib, aholi daromadlari darajasiga asoslangan manzilli naqd pul transferlari tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq. Devereux-Sabates-Wheeler [6] metodologiyasi asosida ijtimoiy dasturlarning transformatsion funksiyasini kuchaytirish, ya'ni ularni nafaqat daromadlarni qo'llab-quvvatlash, balki inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirish tavsiya etiladi.

- Norasmiy sektorni rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish. Buning uchun soliq rag'batlari, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhimdir. Mazkur choralar ijtimoiy himoya qamrovining kengayishiga xizmat qilishi mumkin.

- Gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi bandlik dasturlarini rivojlantirish. Ayollarning mehnat bozorida ishtirokini rag'batlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, moslashuvchan mehnat shakllarini rivojlantirish va teng imkoniyatlarni ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni mustahkamlash zarur [9].

- Ta'lim sifati oshirish va xalqaro baholash tizimlarida faol ishtirok etish. OTB [12] tavsiyalariga muvofiq, xalqaro baholash dasturlari natijalaridan keng foydalanish, STEM yo'nalishlarini rivojlantirish hamda kasb-hunar ta'limini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi.

- Ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini kuchaytirish. Xalqaro pul o'tkazmalariga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda ijtimoiy himoya va bandlik siyosatining inklyuziv rivojlanishga ta'siri 2020–2024-yillar kesimida kompleks tarzda baholandi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchi, ijtimoiy himoya xarajatlarning YalMdagi ulushi 17,7 foizdan 23,5 foizgacha oshgan bo'lsa, milliy qashshoqlik darajasi 16,5 foizdan 8,9 foizgacha pasaydi. Mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning



aholi farovonligini oshirish va qashshoqlikni qisqartirish borasidagi natijalarini aks ettiradi. Shuningdek, qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan strategik maqsadlar yo'lida muayyan ijobiy natijalarga erishilganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ishsizlik darajasining 10,5 foizdan 5,5 foizgacha pasayishi hamda mehnat kuchi tarkibidagi aholi sonining ortishi mehnat bozorida ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiy faolligi va mehnat bozorida ishtiroki bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Gender tengsizlik indeksi bo'yicha O'zbekistonning mintaqadagi nisbatan yuqori ko'rsatkichlari ham ushbu yo'nalishdagi ijobiy siljishlarni tasdiqlaydi.

Uchinchidan, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi (taxminan 36 foiz), ta'lim sifati bilan bog'liq masalalar hamda xalqaro pul o'tkazmalariga yuqori darajadagi bog'liqlik inklyuziv rivojlanishning muhim omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar inklyuziv rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki tomonidan 2024-yil oktabr oyida O'zbekistonda ijtimoiy himoya, qishloq xo'jaligi va iqlim tavakkalchiliklarini boshqarishga qaratilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 800 million AQSh dollari miqdorida moliyaviy mablag' ajratilgani [3] mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga xalqaro hamkorlar tomonidan katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish O'zbekistonning inklyuziv rivojlanish yo'lidagi natijalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. *All on Board: Making Inclusive Growth Happen*. – Paris: OECD Publishing, 2014.
 2. World Bank. *Uzbekistan Boosts Economic and Social Reforms with Additional World Bank Support*. Press Release, December 17, 2021. – Washington, DC: World Bank, 2021.
 3. World Bank. *Uzbekistan's Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action to Benefit from World Bank Support*. Press Release, October 3, 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.
 4. World Bank. *Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation*. Results Briefs, July 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.
- World Bank. *Uzbekistan: Selected Indicators 2010–2024*. – Washington, DC: World Bank, 2024. URL: <https://thedocs.worldbank.org>
- Devereux, S., & Sabates-Wheeler, R. *Transformative Social Protection*. IDS Working Paper No. 232. – Brighton: Institute of Development Studies, 2004.
- International Monetary Fund (IMF). *Causes and Consequences of Income Inequality: A Global Perspective*. IMF Staff Discussion Note SDN/15/13. – Washington, DC: IMF, 2015.
- Fields, G. S. Labor Market Analysis for Developing Countries // *Labour Economics*. – 2011. – Vol. 18 (S1). – P. S16–S22.
- Klasen, S., & Lamanna, F. The Impact of Gender Inequality in Education and Employment on Economic Growth: New Evidence for a Panel of Countries // *Feminist Economics*. – 2009. – Vol. 15, No. 3. – P. 91–132.
- Mustafakulov, Sh. I., & Xasanov, B. A. Ijtimoiy himoya xarajatlari va qashshoqlik: O'zbekiston iqtisodiyoti tahlili (2017–2022) // *Iqtisodiy tahlil jurnali*. – 2022. – № 2(3). – B. 34–51.
- G'ulomov, S. S. *O'zbekiston mehnat bozori: norasmiy sektor muammolari va yechimlari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2021.
- Asian Development Bank (ADB). *ADB Forecasts 5% Growth for Uzbekistan in 2023 and 2024*. – Manila: ADB, 2023. URL: <https://www.adb.org/news>
- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Aholi bandligi va mehnat ko'rsatkichlari 2020–2024*. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024. URL: <https://stat.uz>
- World Bank. *Personal Remittances, Received (% of GDP) – Uzbekistan*. – Washington, DC: World Bank Data, 2024. URL: <https://data.worldbank.org>
- World Bank. *Uzbekistan Country Overview*. – Washington, DC: World Bank, 2025. URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
- United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2023: Special Edition – Uzbekistan Profile*. – New York: UNDP, 2023. URL: <https://hdr.undp.org>
- UN Women. *Women in Uzbekistan: Parliamentary Representation and Gender Statistics*. – New York: UN Women, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>